



## Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2026- yil yanvar-may


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **16 844,2** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,9** % ni tashkil etib, uning hajmi esa 3 113,1 mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** 2025- yil yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi 13 731,1 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 110,0 % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan (6 756,1 ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 438,6 ming so'mga yoki 15,5 % ga o'sib, 8 194,7 ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 892,1 mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 70,6 % ini, jumladan, 47,6 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2025- yil yanvar-may oylari hajmi va 2026- yil yanvar-may oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## **II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi**

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko‘rsatkichlari

2026- yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, %	O‘sinh sur‘ati, %
<b>Qoraqalpog‘iston Resp. <sup>2</sup></b>	<b>16 844,2</b>	<b>100,0</b>	<b>116,9</b>
Nukus shahri	4 255,1	25,3	124,1
tumanlar:			
Amudaryo tumani	478,2	2,8	115,5
Beruniy tumani	485,5	2,9	116,3
Bo‘zatov tumani	65,4	0,4	118,9
Qorao‘zak tumani	168,7	1,0	121,0
Kegeyli tumani	190,6	1,1	122,6
Qo‘ng‘irot tumani	1 130,6	6,7	147,0
Qonliko‘l tumani	159,4	0,9	123,6
Mo‘ynoq tumani	223,4	1,3	116,4
Nukus tumani	212,6	1,3	121,8
Taxiatosh tumani	225,5	1,3	125,9
Taxtako‘pir tumani	141,3	0,8	117,4
To‘rtko‘l tumani	692,6	4,1	119,1
Xo‘jayli tumani	448,6	2,7	115,2
Chimboy tumani	287,6	1,7	117,0
Shumanoy tumani	139,3	0,8	118,1
Ellikqal‘a tumani	387,8	2,3	116,8

### **Mavzu bo‘yicha ko‘rsatkichlar:**

[Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Nukus shahrining yuqori ulushi (25,3 %) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Qoraqalpog‘istonning eng yirik shahridir. Poytaxtda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo‘lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo‘lgan talabni oshiradi. Nukus rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

<sup>2</sup> Shahar va tumanlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida transport xizmatlari 47,2 % ga (o'sishiga hisyasi 6,2 band), yashash va ovqatlanish xizmatlari 10,2 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hisyasi 2,9 bandni tashkil etdi), savdo xizmatlari 11,0 % ga (o'sishiga qo'shgan hisyasi 2,9 band), moliyaviy xizmatlar 22,2 % ga (o'sishiga hisyasi 2,6 band), ta'lim sohasidagi xizmatlar 10,5 % ga (o'sishiga hisyasi 0,4 band) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 11,2 % ga (o'sishiga hisyasi 0,4 band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

#### Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari 2026- yil (yanvar-may)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>13731,1</b>	<b>16844,2</b>	<b>116,9</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	515,3	618,1	111,2
moliyaviy xizmatlar	1629,4	2051,7	122,2
transport xizmatlari	1783,4	2681,2	147,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1117,6	1409,2	109,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3898,6	4590,5	110,2
savdo xizmatlari	3588,8	4150,0	111,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	221,1	250,5	111,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	477,8	533,2	110,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	132,6	158,6	113,3
ijara xizmatlari	190,4	259,4	127,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	319,1	377,1	113,6
shaxsiy xizmatlar	359,4	441,2	111,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	93,9	120,9	113,4
boshqa xizmatlar	521,1	611,7	103,3




**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 27,3 %, savdo xizmatlari 24,6 %, transport xizmatlari 15,9 %, moliyaviy xizmatlar 12,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,7 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 3,2 % ulushini tashkil etdi.

*Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 28,4 foiz, savdo xizmatlari 26,1 foiz, transport xizmatlari 13,0 foiz, moliyaviy xizmatlar 11,9 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,8 foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa 3,5 foiz ulushni tashkil etgan.*


*Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2026- yil yanvar-may, %*



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga telekommunikatsiya xizmatlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 68,9 foizni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa 4,3 foizga o'sgan.

2026- yilning yanvar-may oylarida savdo xizmatlari tarkibidagi chakana savdoning o'sishi kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi 350,3 mlrd so'mga yoki 16,1 foizga o'sishi kuzatilgan.

### Savdo xizmatlarining o‘shish sur‘ati dinamikasi



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar sohasida kompyuterlar va periferik uskunalarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish xizmatlari (113,8 %), kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta‘mirlash xizmatlari (113,6 %) xizmatlarida yuqori o‘shish sur‘ati qayd etildi. Mebellar va uy-ro‘zg‘or anjomlarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlarining 30,3 foizini tashkil etadi.

Maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog‘ uchun uskunalari (gazon o‘ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari shu sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Qoraqalpog‘istonda yashash va ovqatlanish xizmatlarining rivojlanishi sezilarli o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko‘payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog‘liqdir. Ushbu xizmatlarning o‘shishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar hajmining oshishi ta‘sir ko‘rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 98,7 % ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning o‘shish sur‘ati 110,1 % ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari va notijorat tashkilotlar bo‘yicha statistik hisobot (ro‘yxat bo‘yicha);



b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlari to'lovligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## **V. Foydali havolalar**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar va savdo statistikasi  
bo'limi

**Manzil:** 230103, Nukus,  
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy  
**Pochta:** info@qrstat.uz  
**Tel.:** +998 (61) 222-22-45

